

MIGRATSIYANING OILAVIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI



M.G'.Abdusalomova

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Zamonaviy mehnat migratsiyasi, yuqori turmush darajasiga bo'lgan intilish, aholi sonining ortishi, rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchiga bo'lgan talablarning yuqoriligi, mavjud mintaqalarda ish o'rinlarining yetarli emasligi migrantlar sonining orib borishiga sabab bo'lmoqda. Migratsion jarayonlarning rivojlanishi, bu jarayonlarning oilaviy munosabatlarga bo'lgan ta'sirini ham sezilarli darajada oshirayotgani xech kimga sir emas. Ushbu maqolada migratsion jarayonlarning oilaviy munosabatlarga, farzandlar hayoti, kelajagi va dunyoqarashiga nisbatan ta'siri atroflicha muhokama etilgan. Mavjud muommolar va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: oilaviy migratsiya, xalqaro mehnat migratsiyasi, oilani birlashtirish migratsiyasi, oila shakllanishi, oila bilan migratsiya, farzand asrab olishning xalqaro migratsiyasi, davlatlararo nikoh.

Barchamizga ma'lumki zamon rivojlanar ekan, insonlarning ongi, hayoti, intilishi ham jamiyatga, zamonga monand o'zgarib boradi. Hozir shiddat bilan rivojlanib borayotgan, yangilik va ixtirolarga to'la, insoniyat hayotini turli shakllarda yangilayotgan, yengillashtirayotgan va o'zgartirib yuborayotgan zamon barchani yaxshi hayot kechirishga, munosib turmush darajasiga erishishga bo'lgan intilishini oshirib yubordi.

Bunday jarayonlar, o'zgarishlar yurtimizni ham chetlab o'tmadi, albatta. Yurtimiz hozir rivojlanish va yangilanish bosqichida. Tabiiyki bunday bosqichda har qanday davlatning oldida albatta fuqarolarini munosib turmush darajasiga erishishlarini kafolatlash uchun ularni daromadli ish bilan ta'minlash hamda yetarli ish o'rinlarini yaratish vazifasi birlamchilar qatorida turadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil yakuniga qaraganda mamlakatimizda ishsizlik darajasi 6,8 foizni tashkil etib, avvalgi yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga kamaydi. Ammo aholining ishsizlik darajasining kamayishiga yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar qatorida migratsion jarayonlarning ta'siri ham yuqori ekanligini ta'kidlab o'tish kerak.

Jahondagi ishchi kuchi donorlari va retsipientlarining iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biri bo'lgan xalqaro mehnat migratsiyasi aynan mamlakatlarda mehnat resurslari balansini optimallashtirish va mahalliy mehnat bozorida bosimni yumshatishda muhim rol o'ynamoqda.

Tabiiyki migratsiya jarayonlari rivojlanib borishi uning bir qancha turlarining ham paydo bo'lishi va rivojlanishiga asos bo'ladi. Ular qatorida ayniqsa mehnat migratsiyasi va oilaviy migratsiya alohida ahamiyatga ega.

Mehnat migratsiyasi (inglizcha labour migration) – bu ish qidirib topish va bandlik bilan bog'liq hudud bo'ylab odamlarning almashinishini o'zida ifodalaydigan migratsiyaning bir turi.

Oilaviy migratsiya “family migration” deganda, o'z oila a'zolari bilan boshqa mamlakat yoki mintaqaga ko'chib o'tayotgan shaxslarning ko'chishi tushuniladi. Ushbu turdagi migratsiya ilk bor 1978-yilda tadqiqotchi Mincer tomonidan o'rganilgan bo'lib, endi migrantlar deganda yakka shaxs emas, balki oilaviy migratsiya ham nazarda tutilishi ta'kidlangan.

Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot 2022-yilda 281 mln kishi o'z vatanidan tashqarida yashashini, ularning 169 mln.i aynan mehnat migrantlari ekanligini hamda ularning 67,9 foizi yuqori daromadli va 18,6 foizi o'rta daromadli mamlakatlarda to'planganligini ma'lum qiladi.[1] Xalqaro migrantlar tarkibida yakka o'zi mehnat migratsiyasini amalga oshirgan migrantlar orasida oilaviy migratsiyani amalga oshirgan migrantlar soni ham ortib borayotgani juda ahamiyatli.

Umuman olganda, migratsiya jarayonlarini hisobini olib borish ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Jahon miqyosida 281 mln migrantlar bo'lsa, ularning 60 foizini mehnat migrantlari, 10 foizini bolalar, 12,5 foizini qochoqlar, 12,8 foizini talaba migrantlar va boshqalar tashkil etadi.

Migrantlarning eng ko'p qismini mehnat migrantlari, mehnat migrantlarining deyarli yarmini esa oilaviy migrantlar tashkil etadi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti hisobotiga ko'ra, 2022-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) mamlakatlariga tashrif buyurgan mehnat migrantlarning 40 foizi aynan oilaviy sabablarga ko'ra tashrif buyurgan va ushbu ko'rsatkich 2,2 mln. migrantni tashkil qildi[2].

Oilaviy migratsiyaning sabablariga ko'ra bir necha keng tarqalgan turlari mavjud bo'lib, ularni birma-bir ko'rib chiqamiz:

1. Oilalarni birlashtirish migratsiyasi (Family Reunification Migration) – bu dastlab boshqa joyga ko'chib o'tgan oila a'zolarining o'z yaqinlari bilan birga yashashga intilishi bilan namoyon bo'lgan. Bunda esa migrantlarga oila a'zolarining ya'ni farzandlari, rafiqalari yoki qarindoshlarini olib kirishga ruxsat berish siyosati yordam beradi[3].

2. Oila bilan mehnat migratsiyasi (Labor Migration with Family) – bunday turdagi migrantlar o'zga yurtda ishlash uchun oila a'zolari bilan birga ko'chib boradilar. Ushbu migratsiya turi ko'proq qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ko'proq namoyon bo'ladi.

3. Qochoq yoki boshpana izlovchi migratsiya (Refugee or Asylum-Seeking Migration) – oilalar taqib, zo'ravonlik yoki qandaydir mojarodan qochganlarida birga ko'chib ketishlari mumkin.

4. Doimiy rezidentlar migratsiyasi (Permanent Resident Migration) – oilalar oila asosida ko'chib o'tishga ruxsat beruvchi turli vizalar orqali boshqa mamlakatda yashash uchun ko'chib o'tadilar.

5. Ta'lim migratsiyasi (Education Migration) – ba'zi oilalar o'zlari yoki farzandlarining yetarli va yaxshi ta'lim olish imkoniyatlaridan foydalanishlari uchun boshqa davlatlarga ko'chib ketadilar.

6. Farzand asrab olishning xalqaro migratsiyasi (International Adoption Migration) – oilalarni boshqa mamlakatlardan farzand asrab olishlari bilan bog'liq migratsiya.

7. Oila bilan mavsumiy yoki vaqtinchalik migratsiya (Seasonal or Temporary Migration with Family) – qishloq xo'jaligi sharoitidagi oilalar mavsumiy migratsiya bilan shug'ullanadilar.

8. Davlatlararo nikoh (Inter-country Marriage) – oilalar transcargaraviy nikohlar natijasida migratsiya qiladilar.

Oilaviy migratsiya jarayonlarini tizimlashtirish turlarga ajratish uning salbiy va ijobiy jihatlarini tahlil qilishda muhim omillardan hisoblanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan anglashiladiki, oilaviy migratsiya o'rganilishi muhim bo'lgan va o'zida oilalarni iqtisodiy, ijtimoiy ahvolini yaxshi tarafga o'zgartiradigan, ularning bilim olishlari, zamonaviy kasb turlarini egallashlari va munosib turmush darajalariga erishishlari uchun yordam beradigan, davlatlararo turli madaniyatlarning almashinuviga yaqindan ko'maklashadigan ijobiy xususiyatlarni jamlab olgan jarayon hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, yaxshiroq tibbiy yordam olish imkoniyatlarining oshishi, yangi tillarni o'rganish imkoniyati, yangi ko'nikmalar va tajribalar olish imkoniyati, ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishi migratsiyaning o'ziga xos jihatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ammo ko'p hollarda oilaviy migratsiya stress, tushkunlik, qiyinchiliklar va tushunmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi va iqtisodiy qiyinchiliklarga olib keluvchi salbiy jarayon hamdir. Oilaviy migrantlarda yangi tilni bilmaslik, yangi madaniyatlarga moslashish, yaqinlari va yaqin do'stlaridan ajralgan holda yashash jarayonlari stressli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Migrant ota-onalarning farzandlari bilan munosabatida ko'plab salbiy tushunmovchiliklar, madaniyatlar o'rtasidagi farq va moslashishning qiyinchiliklari tufayli kelib chiqadi. Ma'lumotlarga qaraganda migrantlar duch keladigan eng ko'p muammolardan biri ko'chib borgan mamlakatining qonunchiliklarini bilmasligi va eng qizig'i o'z haq-huquqlarini ham to'la anglab yetmasliklari tufayli ham kelib chiqmoqda ekan[4]. Va shuni alohida ta'kidlash joizki, oilalarning yangi joyga ko'chishi bilan, ularning vatanida qolgan qo'shni va do'stlariga bo'lgan sog'inchi hissi kuchayishi mumkin, bu esa ruhiy holatga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oilaviy migratsiya jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qancha taklif va tavsiyalar berish mumkin. Ushbu tavsiyalar oilaning har bir a'zosining farovonligini oshirishga

xizmat qiladi, yangi muhitga moslashishni osonlashtirish va migratsiya jarayonini yaxshilashga yordam beradi:

- Migratsiya jarayonlarini oldindan rejalashtirish va migratsiya amalga oshadigan mamlakat va uning qonunchiligi haqida yaxshi ma'lumotlarga ega bo'lish;

- O'z huquq va erkinliklarini bilish va himoya qilishning har qanday shakllaridan to'laqqonli foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- Migratsiya amalga oshiriladigan mamlakatning tili, urf-odatlari va milliy qadriyatlarini o'rganish.

- Migratsiya jarayonini amalga oshirayotganda o'sha mamlakatning madaniyati va urf-odatlari oilaviy munosabatlarga va farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazmasligiga ishonch hosil qilish;

- Oila a'zolarini tayyorlash, ya'ni har bir oila a'zosining yangi joyga ko'chish haqidagi fikrlarini va his-tuyg'ularini muhokama qilish va farzandlarga yangi maktab, yangi tilga o'rganishda yordam berish kerak.

- Moliyaviy masalarni oldindan rejalashtirish.

Yuqoridagi usullardan samarali foydalanish oilaviy migratsiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hamda oila a'zolarining turli stress va qiyinchiliklarga duch kelmasliklarida yetarlicha yordam beradi deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boyd, M. (1989). Family and personal networks in international migration: Recent developments and new agendas. *International Migration Review*, 23(3), 638–670.

2. Zlotnik, H. (1995). Migration and the family: The female perspective. *Asian and Pacific Migration Journal*, 4(2–3), 253–271.

3. Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafvna: Oilaviy migratsiyaning ilmiy-nazariy asoslari: *Economics and Innovative Technologies Journal*, 4/2024, iyul-avgust (№ 00072).

4. O. D. Vorobyova, A. V. Topilin: Ko'p qirrali migratsiya: M. Iqtaxborot. 2014. 274-b.